

**NIKOH SHARTNOMASI: MILLIY HUQUQIY ISLOHOTLAR VA
XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI**

Shodiyeva Irida Soatmurod qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti talabasi

E-mail: shodiyevairisa@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada nikoh shartnomasi institutining huquqiy mohiyati, uning oila qonunchiligidagi o'rni hamda O'zbekiston Respublikasida ushbu sohada amalga oshirilayotgan huquqiy islohotlar tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida nikoh shartnomasining milliy qonunchilikdagi rivojlanish bosqichlari, amaliy qo'llanilishi hamda uning xalqaro tajribadagi o'rni o'rganilgan. Shuningdek, Germaniya, Rossiya Federatsiyasi, Fransiya va AQSh kabi mamlakatlarning oilaviy huquq tizimlaridagi nikoh shartnomasini tartibga solish mexanizmlari tahlil qilinib, ularning O'zbekiston qonunchiligi uchun dolzarb jihatlari aniqlangan. Maqola yakunida milliy huquqiy tizimni takomillashtirish yuzasidan amaliy takliflar ilgari suriladi.

Kalit so'zlar: nikoh shartnomasi, oila huquqi, shartnoma erkinligi, huquqiy islohotlar, milliy qonunchilik, xorijiy tajriba, mulkiy munosabatlar, huquqiy himoya, qiyosiy tahlil.

**БРАЧНЫЙ ДОГОВОР: НАЦИОНАЛЬНЫЕ ПРАВОВЫЕ РЕФОРМЫ И
ОПЫТ ЗАРУБЕЖНЫХ СТРАН**

Шодиева Ириса Соатмурод кизи

*Студентка Ташкентского государственного
юридического университета*

E-mail: shodiyevairisa@gmail.com

Аннотация: В данной статье анализируется правовая сущность института брачного договора, его роль в семейном праве, а также правовые реформы, реализуемые в этой сфере в Республике Узбекистан. В ходе исследования были изучены этапы развития брачного договора в национальном законодательстве, практика его применения и роль в международном опыте. Также были проанализированы механизмы регулирования брачного договора в системах семейного права таких стран, как Германия, Российская Федерация, Франция и США, и выявлены их актуальные аспекты для законодательства Узбекистана. В конце статьи предлагаются практические предложения по совершенствованию национальной правовой системы.

Ключевые слова: брачный договор, семейное право, свобода договора, правовые реформы, национальное законодательство, зарубежный опыт, имущественные отношения, правовая защита, сравнительный анализ.

PRENUPTIAL AGREEMENT: NATIONAL LEGAL REFORMS AND THE EXPERIENCE OF FOREIGN COUNTRIES

Shodiyeva Irida Soatmurod qizi

Student of Tashkent State University of Law

E-mail: shodiyevairisa@gmail.com

Annotation: *This article analyzes the legal essence of the institution of a prenuptial agreement, its role in family law, and the legal reforms being implemented in this area in the Republic of Uzbekistan. During the study, the stages of development of the prenuptial agreement in national legislation, its practical application, and its role in international experience were studied. Also, the mechanisms for regulating the prenuptial agreement in the family law systems of countries such as Germany, the Russian Federation, France, and the USA were analyzed, and their relevant aspects for the legislation of Uzbekistan were identified. At the end of the article, practical proposals are put forward for improving the national legal system.*

Keywords: *prenuptial agreement, family law, freedom of contract, legal reforms, national legislation, foreign experience, property relations, legal protection, comparative analysis.*

Kirish

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida oila instituti va oilaviy munosabatlarni huquqiy jihatdan mustahkamlashga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar izchil ravishda amalga oshirilmoqda. Xususan, nikoh shartnomasi (prenuptial agreement) instituti milliy huquqiy makonda tobora e‘tibor qozonmoqda. Ma‘lumotlarga ko‘ra, 2018-yilda respublikada notarial idoralarda 219 ta nikoh shartnomasi tuzilgan, umumiy nikohlar soni esa 300 mingdan ortiq bo‘lgan.³ Shu bilan birga, ayrim hududlarda nikoh shartnomasini tuzishni majburiy qilish to‘g‘risida takliflar kiritilgan.⁴ Chunki nikoh shartnomasi er-xotin o‘rtasidagi mol-mulk aloqalarini oldindan kelishishga, ajralish holatlarida mulk taqsimotini aniq belgilashga, shuningdek, oilaviy munosabatlarda huquqiy barqarorlikni ta‘minlashga xizmat qiladi. Xalqaro tajribada ko‘ringanidek, masalan, Germaniyada huquqiy me‘yorlar (masalan, Bürgerliches Gesetzbuch § 1408 va keyingi moddalar) er-xotinlarga mulkiy huquqlarini kelishuv asosida belgilash imkonini beradi.⁵ Shu bilan birga, jahon amaliyotida nikoh shartnomasi oilaviy nizolarni kamaytirish va notarial jarayonlar orqali huquqiy aniqlikni oshirish vositasi sifatida ko‘rilmoqda.

³O‘zbekistonda nikoh shartnomasi tuzishni majburiy qilish bo‘yicha takliflar bilan bog‘liq ma‘lumotlar. Kun.uz, 2023-yil 10-yanvar. URL: <https://kun.uz/uz/93535140>

⁴ Namangan viloyati hokimligi nikoh shartnomasini majburiy etish taklifi haqida. Daryo.uz, 2019-yil 17-fevral. URL: <https://daryo.uz/2019/02/17/>

⁵ Bürgerliches Gesetzbuch (BGB) § 1408–1412, Federal Ministry of Justice, Germany, 2024-yil. URL: https://www.gesetze-im-internet.de/bgb/_1408.html

O'zbekiston qonunchiligida nikoh shartnomasi instituti nisbatan yangi bo'lishiga qaramay, u bilan bog'liq normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, amaliy tatbiqini kengaytirish va xalqaro standartlarga moslashtirish bo'yicha dolzarb vazifalar mavjud. Shu nuqtai nazardan, ushbu maqolada nikoh shartnomasining huquqiy mohiyati, milliy qonunchilikdagi o'rni va amaldagi holati hamda xorijiy mamlakatlar tajribasi tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi ham aynan O'zbekistonda nikoh shartnomasi institutini xalqaro tajriba asosida takomillashtirish, milliy qonunchilikdagi bo'shliqlarni aniqlash va tegishli tavsiyalar ishlab chiqishdan iboratdir.

Metodlar

Tadqiqotda nikoh shartnomasi institutini huquqiy jihatdan chuqur o'rganish maqsadida bir nechta ilmiy-uslubiy yondashuvlardan foydalanildi. Avvalo, huquqiy tahlil usuli orqali O'zbekiston Respublikasining amaldagi Oila kodeksidagi nikoh shartnomasiga oid normalar o'rganildi va ularning mazmuni xalqaro huquqiy tajriba bilan solishtirildi. Qiyosiy (komparativ) tahlil usuli yordamida xorijiy mamlakatlarning (Germaniya, Rossiya, Fransiya, AQSh) oilaviy qonunchiligida nikoh shartnomasi institutining o'rni, tuzilish tartibi, amal qilish doirasi va huquqiy oqibatlari tahlil qilindi. Bundan tashqari, tarixiy-uslubiy yondashuv asosida nikoh shartnomasining huquqiy shakllanish jarayoni, u bilan bog'liq doktrinal qarashlar hamda milliy huquqda mazkur institutning shakllanish bosqichlari o'rganildi. Tizimli tahlil usuli orqali nikoh shartnomasining oila huquqi tizimidagi o'rni va uning fuqarolik huquqi bilan bog'liqligi aniqlab berildi. Yakuniy bosqichda mantiqiy tahlil va umumlashtirish usullari yordamida olingan natijalar asosida O'zbekiston qonunchiligini xalqaro amaliyot asosida takomillashtirish bo'yicha xulosalar ishlab chiqildi.

Muhokama va natijalar

Nikoh shartnomasi instituti bugungi kunda O'zbekiston oilaviy huquq tizimini modernizatsiya qilish yo'lidagi muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 27–29-moddalarida ushbu institutning huquqiy asoslari belgilangan bo'lib, u er-xotinlarning mulkiy huquq va majburiyatlarini notarial tartibda tartibga solishni nazarda tutadi.⁶ O'zbekiston Respublikasida nikoh shartnomasi instituti huquqiy jihatdan qonun hujjatlarida mustahkamlana boshlagan bo'lsa-da, amaliy qo'llanilishi hali keng tarqalmagan. Masalan, nikoh shartnomasining yaratilishi va tuzilishi uchun notarial tasdiqlash hamda ushbu shartnomaga oid ma'lumotlarning keng jamoatchilikka yetkazilishi yetarli emas. Natijada, er-xotinlar ko'pincha default rejimda – ya'ni ulushli mulk, umumiy mol-mulki rejimida qolmoqda. Bu holat, nikoh shartnomasining afzalliklarini, masalan, ajralish holatida mulklarning oldindan belgilanishi, qarz majburiyatlarining aniqligi, meros huquqlarining tartibi to'liq amaliyotga tatbiq etilmayotganligini ko'rsatadi. Shuning uchun ham Adliya vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan "Oila qonunchiligini takomillashtirish konsepsiyasi" kabi loyihalarda nikoh shartnomasini ommalashtirish, uni raqamlashtirish va namunaviy shakl

⁶ O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksi, 27–29-moddalar

joriy etish taklif etilgan.⁷ Shu bilan birga, xorijiy tajriba tahlili shuni ko'rsatadiki, Germaniya, Fransiya va AQShda nikoh shartnomasi oilaviy barqarorlik va moliyaviy adolatni ta'minlashda muhim huquqiy mexanizm sifatida faol qo'llaniladi.

Germaniya tajribasi

Germaniya huquqida er-xotinlar nikohga kirishishdan oldin yoki nikoh davomida mol-mulk rejimini o'zaro kelishuv orqali belgilashlari mumkin. Bu huquqiy rejimlar ichida eng keng tarqalgani "Zugewinnngemeinschaft" ya'ni "jamg'armalar yig'imi bo'yicha jamiyat" rejimi bo'lib, agar shartnoma tuzilmasa, odatda, avtomatik ushbu rejim amal qiladi.⁸ Ammo amaliy tadqiqotlar bo'yicha, Germaniyada ham nikoh shartnomasi tuzish foizi nisbatan past bo'lib, taxminan 5 % ni tashkil qiladi⁹. Bu tajriba Germaniyada nikoh shartnomasi institutining huquqiy jihatdan mavjudligini, lekin uning ommaviy qo'llanilishi uchun qo'shimcha omillar zarurligini ham ko'rsatadi.

Fransiya

Fransiyada nikoh shartnomasi va mol-mulk rejimlari Fransiya Fuqarolik kodeksining moddalarida belgilangan. Agar er-xotin shartnoma tuzmasa, "régime légal de communauté réduite aux acquêts" ya'ni "nikoh paytidan keyin orttirilgan mulk bo'yicha jamiyat rejimi" avtomatik amal qiladi¹⁰. Bu tizim shuni ko'rsatadiki, nikoh shartnomasi yuridik jihatdan mustahkam bo'lsa ham, uni amalga oshirish uchun notarius yordami va huquqiy ma'lumotlar keng tarqalgan bo'lishi muhimdir.

Rossiya Federatsiyasi

Rossiyada nikoh shartnomasi va mol-mulk rejimi institutlari normativ hujjatlar bilan tartibga solingan. Masalan, nikoh shartnomasi er-xotinlar o'rtasidagi mulkiy huquqlarni hamda ajralishdagi taqsimotlarni belgilashi mumkin. Amaliyotda esa, Rossiyada shartnomaga bo'lgan qiziqish so'nggi yillarda, ayniqsa, raqamli notariat xizmatlari joriy etilishi bilan oshgan.

Xorijiy tajribalardan ko'rinib turibdiki, nikoh shartnomasi instituti samarali ishlashi uchun bir necha muhim shart mavjud:

- ✓ huquqiy protseduralarning aniq va soddaligi (masalan, shartnoma tuzish jarayoni, notarial tasdiqlash);
- ✓ aholining huquqiy madaniyati va ma'lumotga ega bo'lishi: shartnoma afzalliklari to'g'risida tushuncha mavjud bo'lishi;
- ✓ sud va huquqiy amaliyotning shakllanganligi – ya'ni, tuzilgan shartnomalarning sudlar tomonidan e'tirof etilishi, ularning manbai sifatida qo'llanilishi.

⁷ O'zbekiston Respublikasida oila institutini mustahkamlash konsepsiyasi. — Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Hukumatining rasmiy sayti. URL: <https://old.gov.uz/oz/news/view/17734>

⁸ Matrimonial property regimes – France: https://e-justice.europa.eu/topics/family-matters-inheritance/property-marriage-civil-partnerships/matrimonial-property-regimes/fr_en

⁹ Matrimonial property regimes – Germany: https://e-justice.europa.eu/topics/family-matters-inheritance/property-marriage-civil-partnerships/matrimonial-property-regimes/de_en

¹⁰ Matrimonial property regimes – France: https://e-justice.europa.eu/topics/family-matters-inheritance/property-marriage-civil-partnerships/matrimonial-property-regimes/fr_en

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

O'zbekistonda esa bu uch omilning har biri bo'yicha huquqiy islohotlar olib borilmoqda, ammo amaliy natijalar hali to'liq emas. Shu bois, quyidagicha natijaviy tavsiyalar ishlab chiqildi:

- ✓ huquqiy savodxonlikni oshirish kampaniyalarini tashkil etish;
- ✓ notarial xizmatlar va raqamlashtirish tizimini kuchaytirish;
- ✓ normativ bazani kengaytirish;
- ✓ milliy qonunchilikni xorijiy tajribaga moslab yangilash.

Umuman olganda, nikoh shartnomasi O'zbekiston Respublikasining oila huquq tizimida milliy huquqiy islohotlar doirasida xalqaro tajriba bilan uyg'un ravishda rivojlanishi mumkin, lekin bu uchun ko'p jihatdan amaliy qo'llanma, huquqiy madaniyat va institutsional infratuzilma zarur.

Xulosa

Nikoh shartnomalari O'zbekiston oilaviy qonunchiligini takomillashtirish, er-xotinlar o'rtasidagi moliyaviy barqarorlikni ta'minlash va nizolarni oldini olishning muhim instrumentidir. Xorijiy mamlakatlar, xususan Fransiya, Germaniya va Rossiya tajribasi shuni ko'rsatadiki, nikoh shartnomalari erkin, ixtiyoriy va huquqiy himoyalangan holda tuzilsa, oila institutini mustahkamlashda samarali vosita hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, O'zbekistonda nikoh shartnomalarini qo'llashni rag'batlantirish va qonunchilikni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. Oila qonunchiligini takomillashtirish konsepsiyasi loyihasi. — Toshkent, 2024.
2. Matrimonial property regimes – France. https://e-justice.europa.eu/topics/family-matters-inheritance/property-marriage-civil-partnerships/matrimonial-property-regimes/fr_en
3. Matrimonial property regimes – Germany. https://e-justice.europa.eu/topics/family-matters-inheritance/property-marriage-civil-partnerships/matrimonial-property-regimes/de_en
4. DIW Berlin. Who Opts Out? The Customisation of Marriage in the German Matrimonial Property Regime. https://www.diw.de/de/diw_01.c.956425.de/s_15366.html
5. Moshier Law. Prenuptial Agreements in Germany. <https://moshierlaw.com/prenuptial-agreements-in-germany/>
6. Moshier Law. Prenuptial Agreements in Russia. <https://moshierlaw.com/prenuptial-agreements-in-russia/>